



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yaxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I. Muxamedov**
Pedagogik ta'lim innovasion klaster: uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi sifatida
- 8 **J.E. Usarov**
Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi – ta'lim uzluksizligining bosh omili sifatida
- 13 **D.O. Ximmataliyev**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish omillari
- 18 **U.I. Mahkamov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 24 **S.B. Qorayev**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 30 **G.O. Ernazarova**
Ta'lim va amaliy faoliyat uzluksizligi klaster yondashuv asosida ta'minlash metodologiyasi
- 36 **Y.N. Xodjamkulov**
Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning hamkorlik mexanizmlari
- 41 **M.O. Raxmanova**
Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi
- 47 **Ф.У. Қодирова**
Инклюзив таълимда узвийлик ва узлуksизликни таъминлашнинг педагогик-психологик механизmlari
- 53 **G.S. Abdullayeva**
Uzluksiz inklyziv ta'limni sifatli ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni
- 59 **P. Мусумонов**
Uzluksiz ta'lim muassasalarida ўқув жараёнига нисбатан интизомсизликка оид педагогик ва психологик қарашлар
- 65 **I. Qodirov**
Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining taraqqiyot strategiyasi va uning amalga oshirish mexanizmlari
- 71 **J.F. Ravshanov**
Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida «4+2» shakli bo'cha amaliyot o'tashni tashkil etish
- 75 **Y.YU. Fayzueva**
Оптимизация специальных учреждений – как эффективный путь трансформации образования детей с ОВЗ от специального образования к инклюзивному
- 81 **Sh.A. Abduljalilova**
Maxsus pedagogikaga oid fanlarning o'qitilishida uzviylikni ta'minlashning o'ziga xosligi
- 87 **N.J. Eshnaev**
OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash – kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy-pedagogik kafolati ekanligi
- 93 **Sh.X. Kobilova**
Uzluksiz inklyziv ta'lim muammosini xorij tajribasi misolida o'rganish va uning pedagogik tahlili
- 99 **M.F. Qurbonova**
Uzluksiz ta'limda jaraonida zamonaviy yodashuvlar
- 104 **A.R. Raxmonov**
Uzluksiz ta'lim tizimida uslubiy yordam ko'rsatishning pedagogik mobilli tizimidan foydalanish
- 110 **I.O. Sayfullayeva**
Bo'lajak logopedlarning uzviy kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda art texnologiyalarning o'rni
- 116 **O.S. Ishmatova**
Fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviyligini ta'minlash yo'llari
- 121 **N.A. Egamberdiyeva**
Autizm sindromli bolalar bilan yakka ishlashning uzviyligini ta'minlash omillari



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA USLUBIY YORDAM KO'RSATISHNING PEDAGOGIK MOBILLI TIZIMIDAN FOYDALANISH

A.R. RAXMONOV,

TVChDPI «Umumiy pedagogika»
kafedrası katta o'qituvchisi

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida mobilli hamkorlikni o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayonidagi mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish, belgilangan maqsadga erishish muhim ekanligi, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish uchun qanday ta'lim usullaridan foydalanish zaruriyatlari ko'rsatib o'tildi.

Tayanch iboralar: uzluksiz ta'lim innovatsiyalari, mobillik, klaster yondashuv, mobilli loyihalashtirish, mobilli ta'lim loyihalashtirish metodi, ta'lim modeli, identifikatsiyalangan o'quv maqsadlari, o'quv maqsadlari taksonomiyasi.

So'z ibtidosi sifatida quyidagi jumlanı qayd etib o'tishni o'rni joiz deb o'ylayman. O'zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek «Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarnı kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz». Albatta mamlakatimiz uzoq vaqt ta'limda qiyin muammolarnı boshdan kechirdi. Ammo shunga qaramasdan ta'lim tizimiga tub o'zgarishlarnı bajarishga yangi qonunlarnı ishlab chiqdi. Bu esa uzluksiz ta'lim sohasini yuksak saviyada rivojlantirish va uning zamonaviy mobil aloqasini kuchaytirish zaruratini amalga oshirishni yuzaga keltirdi. Biz ta'limda isloxtatni hamisha jamiyatni istagiga qaratamiz va extiyoj esa oliy o'quv yurti talabalari, maktab o'quvchilari o'rtasida bilimlar almashishga olib keladi. Chunki ta'lim istemolchilari tomonidan extiyoj asosida ta'lim mazmuni o'rganilib boriladi.

Ta'lim tizimidagi kirtilayotgan yangi munosabatlarning bu singari mobilli aloqadorlikni kuchaytirish esa o'ziga xos jihatlar an'anaviy ta'limdagidan farq qilishi kerak bo'ladi. O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarilishi, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish muhim hisoblanadi. O'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish uchun ularni pedagogik faoliyatga ongli ravishda yo'naltirish va biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki qiziqishlar orqali bajarish zaruriyatlari qanoatlantiriladi. O'quvchilarnı fan bo'yicha o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishi, oliygoh talabalari va professor-o'qituvchilari tomonidan ilmiy jixatdan o'rganililadi.



Ta'lim oluvchilarning ehtiyoji va qiziqishlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqi asosida ta'lim erkinligi amalga oshiriladi. Bu esa pedagogik ta'lim tizimidagi yangi klaster yondashuvga asoslanadi. Pedagogik ta'lim klasteri yondashuv odatda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshashligi)larni saralab olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan hamkorlik aloqasini tarmoqlangan ko'rinishi tushuniladi. Oldindan rejalashtirib qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalar kafolatli metodlar majmuasi tushuniladi. Agar ta'lim tizimida metodlar bilishning yo'lini, tadqiqot etsa, yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlarini anglatlsa, usullar majmuasi sifatida tushunsak, pedagogik klasteri mobillik asosida ta'lim usullarini ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiyaning jarayonlarini samarasini, vositalarini, shakl va metodlarini qo'llash zaruriyatini ko'rish mumkin.

Pedagogik mobil hamkorlik aloqalari an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri tizimida an'anaviy metodikadan, avvalo, maqsadlarning aniq qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik metodlarni qo'llash usuli tarkibiy qismiga ta'limning umumiy maqsadlari(o'qituvchi va o'quvchining maqsadlari)ni ishlab chiqish, ta'lim maqsadlarini nazorat(test) topshiriqlarida o'tkazish, maqsadga erishish usullari kiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimida eng asosiysi loyihalashtirish faoliyati o'quvchilar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shaklidir. Loyihalash ta'lim tizimidagi mobillikda ilmiy metod sifatida – o'qitishning ilmiy jixatdan tashkillashtirilishi bo'lib, o'quvchilar faoliyatini oldindan rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarishlarini texnologiyasini ishlab chiqish orqali loyiha ko'rinishida tarkib topadi. Loyihalashtirishning mazkur metodini qo'llash va yaqin hamkorlikni o'rnatish natijasida loyiha(proyekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi.

Professor-o'qituvchi va maktab o'qituvchisi, talabalar va o'quvchilar mobil-ligini o'zaro yaqin munosabatlarni ifodalovchi klasteriga tayanib, ta'lim ishtirok-chilarini birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. O'quvchilarni hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini talabalar va o'quvchilar bilan loyihalashtirish zamonaviy pedagogik tizimidagi o'qitish metodlari hisoblanadi.

Zamonaviy o'quv-tarbiya jarayoniga mobillikni aloqasini keng joriy qilish pedagogdan o'z ustida muhim ishlashni talab etadi. Pedagog o'zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlardan foydalanishi, ya'ni, nazariy-amaliy, o'quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Pedagog o'zidagi mavjud ma'lumot va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta'lim yo'nalishi



bo'yicha ma'lumotlar hamda ilg'or o'qitish uslublarini ko'zlagan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Pedagogda shakllangan bilimlar, ko'nikma va malakalar, o'qitish vositalaridan foydalanish, zamonaviy pedagogik mobillikni o'ziga hos imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq tarzda amaliyotga yo'naltira olish qobiliyatlarini rivojlantirishi, u davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim oluvchiga aniq maqsadini belgilab beradi. Bu esa, o'z navbatida talablarga o'quv amaliyotini, pedagogik mobillikni o'zaro tayyorlangan rejasini ishlab chiqishga, ya'ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda ta'limning mobilli hamkorlik modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubi, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Mobilli aloqa ta'lim modelini yaratish zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biri sifatida e'tibor qaratildi.

Talabalarni birinchi vazifasi: «Ta'lim yuzasidan qonuniy meyoriy hujjatlar bilan tanishish» pedagogik soha bo'yicha raqobatbardosh mutahassislarni tayyor-lash yuzasidan zamonaviy talablar majmuini belgilab beradi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan mobilli aloqasining modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat, ya'ni:

- pedagogning ta'lim berish mahorati;
- pedagogning tarbiyalay olish mahorati;
- ta'lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxs fazilati;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Bugungi kunda mazkur mobil hamkorlik tizimini ta'limga joriy etish O'zbekistonni jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror toptirishiga imkoniyat yaratadi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir qiladi. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibini muntazam o'zgartirishi va shu singari boshqa munosabatlar amalga oshadi. Pedagogik mintalitetlar yaqin munosabatlar asosida o'rnatiladi. Uzlüksiz ta'lim tizimi bugungi kunda yangi axborotlar bilan ishlashga, qobiliyatlarni ijodiy rivojlantirishga, ta'lim dasturlarini individual-lashtirishga imkoniyat yaratadi. O'z navbatida uzluksiz ta'lim tizimida – pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, o'quvchi-talaba bilan maktab o'qituvchisi va professor-o'qituvchilarning shaxsiga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlar takomillashishga olib keladi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik tajriba tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.



Zamonaviy pedagogik faoliyatda mobilli aloqalarni psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- o'quvchining yodda eslab qolish funksiyasiga o'tishi, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishi;
- o'rtacha o'quvchiga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashga va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;
- o'quvchining tashqi motivasiyasidan ichki ma'naviy tartibga o'tish.

Uzluksiz ta'lim tizimida mobillik aloqadorlik zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga zamin yaratadi. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllarining aprobasiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash imkoniyati vujudga keldi. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri sharoitida paydo bo'lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar o'rganiladigan ta'lim tizimi doirasida aynan ta'lim jarayonini yetarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo'shliqni pedagogik faoliyatda chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan pedagogning loyihalashtirilgan mobilli o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o'rin qoldirgan holda ta'limdagi mobillik o'rini to'ldiradi. Pedagogik mobilli aloqalarni o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish, o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va talabalarni muddatidan oldin ishlash uchun kasbiy faoliyati amalga oshiriladi. Mazkur mobilli ta'lim yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali metodlarda o'z ifodasini topadi.

Maqsad ta'limga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarining tashxisli tekshiruvi o'quv jarayonining barcha qirralarini qayta mobilli aloqada ishlab chiqishga imkon yaratadi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchi-talabalarining bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o'quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog'lanish asosida zudlik bilan ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish bo'lishi lozim); – natijani baholash.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv maqsadlarining to'liq standartlashtirish me'yori quyidagicha bo'lishi mumkin: a) yuqori, ammo mutlaq emas; b) mutlaq.



Birinchidan ta'lim jarayonidagi asosiy maqsadning murakkabligi tufayli uni to'liq kuzatuvchan xatti-harakatlar turiga aylantirish imkonini bermaydi, davr to'raligicha qayta ishlab chiqilmaydi.

Ikkinchidan konveyrli jarayon bo'lgan ta'limning reproduktiv turi bilan ish yuritiladi. O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy mobillik jihati – o'quv jarayonining so'nggi natijalariga yo'naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ko'rinishda pedagogik mobillik tarkibiga quyidagilar kiradi:

- identifikasiyalangan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlarining taksonomiyasi;
- o'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik mobil aloqadorlikni faoliyatda o'zaro tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik mobil aloqadorlikni asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab oladi. O'qituvchi o'z oldiga o'quvchilar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, o'qituvchi o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

Rossiyalik olim M.V.Klarin fikri bo'yicha o'qituvchilar tomonidan maqsadlarni belgilashning o'ziga xos usullari quyidagicha:

1. O'quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.
2. Maqsadni o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash.
3. O'quvchining intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o'quv maqsadini qo'yish.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning maqsadi ta'lim mazmuni, o'qituvchining yoki o'quvchining faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo'lishga imkon beradi.

Umuman olganda, ta'lim jarayonida vazifalarni o'lchash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash refleksiya imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin. Mashg'ulot mazmuni deganda, o'quvchida o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma



va malakalar hajmi hamda xarakteri tushuniladi. Mashg'ulot mazmunini mobilli ta'lim tizimini loyihalashga o'tganda, pedagogik tizimning birinchi elementi – maqsad bilan o'zaro farqlanadigan tomonlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Pedagogik mobilli tizimning maqsadini belgilashda, uning talabalar va o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan ro'yxati keltiriladi va ular mashg'ulot maqsadini aniqlash uchun harakat qiladi. Mashg'ulot mazmuni ma'lum qonuniyatlar asosida didaktik jixatdan puxta tayyorlanmas ekan, uni belgilagan vaqt davomida egallash murakkab kechadi. Ta'lim mazmunida bilimlar o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatiga mos kelmay qoladi. Shuning uchun ularning bilimlarini egallashini osonlashtirish maqsadida mashg'ulot mazmuniga qiziqtirib o'qitish texnologiyalarini kiritish yoki pedagog to'plagan boshqa bir usullarni taklif etish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T: «O'zbekiston» 2017-yil, 31b.

2. Movlanova R.A, Voxidov N.H «Ijtimoiy pedagogika,» «Istiqlol nashriyoti» 2009-yil, 25-26b.

3. X.Ibragimov, M.Quronov «Umumiy pedagogika» Sahhof nashriyoti Toshkent-2023y, 56-57 b.

4. A.R.Raxmonov «Boshlang'ich ta'lim jarayoniga innovatsiyon yondashuv» Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari «O'qituvchi innovatsiyon faoliyatining asosiy xususiyatlari» 66 b.

4. A.R.Raxmonov «Zamonoviy o'quv mashg'uloti va ta'limning o'ziga xos imkoniyatlari» O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2020-yil, 51 b.

5. Gippenreiter yu. B. bolalarga nima qilish kerak ... savol va javoblar / Hippenreiter yu. B. - M.: Ed. Ast, 2015. - 74 b.